



ABU ALI IBN SINO - BUYUK QOMUSIY OLIM

Annotatsiya:

Mazkur maqolada O'rta Osiyolik tabobat ilmining ulig' namoyondasi, yuksak ilm sohibi bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning hayoti hamda ilmiy faoliyati haqida gap boradi. Ibn Sinoning butun dunyoga mashhur bo'lgan shoh asari,, Tib qonunlari " haqida ham ma'lumotlar berib o'tiladi.

Kalit so'zlar:

Avitsenna, Ibn Sino , Shayxurrais, mantiq, astronomiya, optika, etika, fiqh, musiqa, matematika, tibbiyot, muhandistlik, „Tib qonunlari”, Hakim vazir”, Sharaful mulk”.

Information about the authors

Elova Dilnoza

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d (PhD)

Abdullayeva Ro'ziniso

Buxoro davlat universiteti talabasi

KIRISH.

Movorounnahr zamini o'rta asr musulmon sharqida ma'rifat va madaniyat maskani sifatida dong taratgan o'lka hisoblanadi. [1]

Yurtimizdan yetishib chiqqan al – Xorazmiy , al – Farg'oniy , al – Farobiy, Beruniy va Ibn Sino kabi buyuk alloma , qomusiy olimlarning ilmiy merosi haqli ravishda umumbashariy mulkka aylangan .[1] Abu Ali ibn Sino ilm va madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo'shgan siymolardan biri. Uning ilmiy merosini o'rganishimiz orqali fanda katta yutuqlarga erishgan hisoblanamiz.[1] Biz uning barcha asarlari ilmiy jihatdan o'rganishiz kerak. Biz allomamaizning asarlari orqali limning boyligini, ma'naviy hayotning barcha masalalari , g'oyaviy muammolari bilan to'la – to'kis bilib olamiz.[1]

Biz ko'plab allomalarimizning ilmiy merosini o'rganamiz , lekin Ibn Sino ijodiga alohida e'tibor bilan yondashishimiz kerak. Abu Ali Ibn Sino ilm taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan. O'rta Osiyoda yetishib chiqqan buyuk allomalarimizdan biri hisoblanadi. [2] Alloma bobomizning fanlar olamida tajriba o'tkazmagan va asar yozmagan soha yo'q desa ham bo'ladi, ayniqsa uning tibbiyot xazinasiga qo'shgan ulkan hissasi bebahodir. [2] Ibn Sino ko'p qirrali ilm sohibi bo'lgan buyuk siymo .[2] Tibbiyot olamida ibn Sinoning tabarruk nomi Gippokrat va Galen kabi daholar bilan bir qatorda turadi. [2] ASOSIY QISM:

Islom Sharqining eng buyuk qomusiy allomasi .[3] Abu Ali al – Husain ibn Abdulloh ibn Sino – Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida 980 – yilda tug'ilgan. [3] Bundan tashqari uning to'liq ismini – Abu Ai Husayn ibn Abdulloh ibn Hasan ibn Ali bo'ib; Abu Ali , deb ham chaqirganlar.[4] Xalq orasida „ Ibn Sino “ , Yevropada „ Avitsenna “ , allomalar orasida esa „ SHayxurrais” nomlari bilan mashhur bo'lgan. [4] Ibn Sinoning otasi Abdulloh Balx shahridan bo'lib , samoniylar amiri Nuh ibn Mansur (976 – 997) davrida Buxoroga ko'chib kelgan . [4] Afshonalik Sitara ismli qizga uylanib , ikki o'g'il farzand ko'rgan . [4] O'g'illarining kattasi Husayn (Ibn Sino) , kenjasi Mahmud bo'lgan .



To'qqiz Yoshida Qur 'oni karimni to'liq yod olib , odob – axloq darslarini mukammal o'zlashtirib borgan. [4] Matematika bilan ham shug'ullangan. [4] Arab adabiyotiga oid kitoblarni ham o'qigan. Uning ilmga kuchli ishtiyoqi va zo'r qobiliyati hammani hayratga slogan. [4]

G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur O'rta Osiyoning buyuk olimi Abu Ali ibn Sino Beruniyning zamondoshi bo'lgan. [1] Ibn Sino o'tmishdoshlari va zamondoshlari yaratgan asarlarni tanqidiy nuqtayi nazardan sintez qilib , o'zi yashagan davrdagi fan va nazariy tafakkurning taraqqiy qilishi uchun juda ko'p hissa qo'shgan .[1] Beruniy (973 – 1048) Xorazmda ilm – fan bilan mashg'ul bo'lib turli bilim sohalarni tadqiq etayotga bir paytda Buxoroda o'n yetti Yashar bir tib olimining shuhrati yoyila boshlagan edi. [1] Tezda bu yosh tabib va faylasufning dovruqi Xorazmgacha yetib keldi. Bu tabibning nomi Ibn Sino edi. Beruniy Ibn Sinoning ilmiy faoliyatini diqqat bilan kuzatib borar va Ibn Sinoning fan va tajribada o'ziga munosib suhbatdosh bo'lishiga ishonch hosil qildi. [1] Ibn Sinoning ilk ustozlari Abu Abdulloh Notiliydan mantiq , muhandislik va astronomiya ilmlarini o'rgangan. [4] U shogirdining qobiliyatiga yuqori baho berib , yanada chuqurroq ilm olishga undagan . [4] Abu Ali tinmay mutolaa qilib, limning turli sohalarini o'zlashtirishga kirishadi. U musiqa , optika , kimyo , fiqh kabi fanlarni o'rganadi , xususan tabobat ilmiga alohida mehr qo'yadi bu sohada tez kamol topa boshlaydi . [4] Husayn tabobatni Buxorolik tabib , bir qator ilmiy ishlar muallifi Abu – l – Mansur Qamariyning qo'l ostida batafsil o'rgangan.[5] Ibn Sino undan tabobatni o'rganib, limning ko'p sirlariga ega bo'lgan. [5]

Allomaning o'zi bunday hikoya qiladi: „Keyinchalik tib ilmi bilan shug'ullangiz keelib qoldi. Unga oid kitoblarni kirishga kirishdim. Tib o'zi qiyin ilmlardan emas edi. Shu sababli qisqa muddat ichida bu sohada shunday natijaga erishdimki, hatto fozil tabiblar ham huzurimga kelib , menda tib ilmlarini o'rganadigan bo'ldi “[4] Ibn Sino tirishqoq , o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishmaguncha tinmaydigan odam bo'lgan. Allomaning o'zi bunday yozadim: „ O'sha kezlari biron kecha to'yib uxlamasdim , kunduzlari ham ilmdan boshqa narsa bilan shug'ullanmasdim. Har bir masalani o'rganayotganimda bir qancha qiyosiy faktlarni solishtirib , shu faktlar nuqtayi nazaridan o'sha dastlabki masala yuzasidan xulosa chiqarar edim . Nihoyat , uning asl mohiyati menga ayon bo'lib qoldi. Anashu zaylda hamma bilimlarni mustahkam egallab oldim. Bir insonning imkonyati darajasida ularni o'zlashtirdim” .[4] Ibn Sino zaruriy bilimlarning barchasini Buxoroda olgan. Vaqt o'tib , o'zi ham asarlar yozishga kirishgan . Ibn Sinoning shogirdi Abu Ubayd Juzjoniyni yozishicha , alloma jismonan juda baquvvat bo'lsa – da , shaharma – shahar yurushi , kecha – kunduz tinim bilmay ishlashi va bir necha bor ta' qib qilinishi , hatto hibsda yotishi olmning salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan.[4] Oqibatda qulanj (kolit) kasalligiga chalingan . Alloma jahon ilm – fani va madaniyatida o'chmas iz qoldirgan.[4] Zamondoshlari ibn

Sinoni „Sharaful mulk” („Saltanat sharafi”) , „ Hujjatul haq” („ Haqiqat tasdig'i”) ‘ „Hakim vazir “ („ Donishmand vazir”) deb atagan.[4] 999 – yilda Buxoro Qoroxoniylar tomonidan zabt etilgach , Samoniylar hokimiyati inqirozga uchradi. [6] 1000 – yil Ibn Sino Buxorodan chiqib ketadi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmgaga boradi, u yerda Xorazm hokimi Ali ibn Ma' mun saroyidagi olimlarni birlashtirgan o'z zamonasining akademiyasiga qabul qilingan. [6] Ibn Sino Beruniy , ibn Miskavayh , Abu Sahl Masihiy , Abulxayr Hम्मor , Abu Nasr ibn Iroq kabi yirik olimlar bilan yaqindan tanishadi. Lekin bu davrda kuchayib borayotgan Mahmud G'aznaviyni ta'qibidan qochib , Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson , Eronning turli shaharlarida sarson – sargardonliqda yurishga majbur bo'ladi. [6] Abivard , Tue , Nishopur shaharlari orqali Jurjon shahriga kelgan Ibn Sino hokim qobus ibn Vashmgir saroyida mashhur tabib sifatida yashadi. [6] 1019 – 1021 – yillarda Hamadonda vazir lovozimida xizmat qilarkan , hokim bilan kelisha olmay , 4 oy qamoqda bo'ladi. 1023 – yilda Isfahonga qochdi va butun umrini ilmiy asarlar yozishga bag'ishladi. [6] Ibn Sinoning „ Kitob al – qonun fit – tibb” , „Kitob un – najot” , „ Kitob ul – insof” kabi mashhur asarlari geometriya , astronomiya , o'simlik , hayvonot olami , mantiqqa oid risolalari, „ Hayy ibn Yaqzon “ falsafiy qissasi so'nggi yillarda yozilgan . [6] Ibn Sino haqiqiy ensiklopedist olim sifatida o'z davridagi fanlarning deyarli hammasini bilan muvaffaqiyatli ravishda shug'ullangan va ularga oid ilmiy asarlat



yaratgan.[2] „Kitobush shifo” ning ko’p bo’limlari mantiq , musiqa , yerning tuzulishi , geologik jarayonlar, metafizikaga doir qismlari ham lotin tilida bosmadan chiqqan .[4] Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan bo’lsa ham , zamonlar o’tishi bilan ularni ko’pi yo’qolib ketgan va bizgacha faqat 242 tasi yetib kelgan.[2] Shu 242 tadan 80 tasi falsafa , ilohiyot va tasavvufga tegishli , 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa , 26 tasi psixologiyaga , 13 tasi botanika ilmiga , 7 tasi astrologiya , 1 tasi matematika , 1 tasi musiqa , 2 tasi kimyo, 9 tasi etika , 4 tasi adabiyotga oid va 8 ta asari boshqa olimlar bilan bo’lgan ilmiy yozishmalardan iborat. [2] Ibn Sinon asarlari G’arb mamlakatlarida XII-asardan boshlab lotin tiliga tarjima qilingan. [4] Birgina „Tib qonunlari” asari lotinchada qirq marta to’liq holda nashr etilgan . Sharq va G’arbda Ibn Sinoning „ Tib qonunlari” asaridan 700 yil mobaynida tibbiyot sohasida asosiy qo’llanma sifatida foydalanilgan.[4]

Ibn Sinoning eng yirik asari tabobatga doir asar „ Tib qonunlari “ asari.

„Tib qonunlari “ 5 kitobdan iborat va ular quyidagilar:[2]

Birinchi kitob – tabobatning nazariy asoslari hamda amaliy tabobatning umumiy masalalari haqida ma’lumot beadi.[7]

Ikkinchi kitobi - o’sha davr tabobatida qo’llanilgan dori – darmonlar haqida zaruriy ma’lumotlar bayon qilingan mukammal majmuadir.[7]

Uchinchi kitob – inson tanasining boshidan tavonigacha bo’lgan a’zolarida yuz bergan „ xususiy “ yoki „ maxalliy “ kasalliklar haqida ma’lumot beradi.[7]

To’rtinchi kitob - kishi a’zolaridan birontasiga xos bo’lmagan „ umumiy “ kasalliklarga bag’ishlangan. [7]

Beshinchi kitob – farmakopiya bo’lib, unda murakkab tarkibli dari – darmonlarni tayyorlash va ulardan foydalanish usullari bayon qilingan.[7]

Allomaning ilmiy ijodi , chuqur falsafiy mazmunni ifodalovchi ruboiylari

Sharq adabiyotida qissalar janrining rivojlanishiga turtki bergan. [4]

Jahon olimlari tomonidan Abu Ali ibn Sino asarlari , uning faoliyati bo’yicha hozirgacha muntazam ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda . Dunyo bo’ylab deyarli barcha tillarda alloma haqida asarlar bitilgan.[4]

Ibn Sinoning qulanj (kolit) kasalligi kuchayadi , unga tutqanoq kasalligi ham qo’shiladi , oqibatda shu kasallikdan u 428 hijriy yilning ramozon oyida (1037 – yilning 18 – iyunida) 57 yoshida Hamadonda vafot etadi.[2] Uning qabri Eron davlatining Hamadon shahrida.[2] Abu Ali Ibn Sino o’gitlaridan.

Ilm narsaning inson aqli yordamida o’rganilishidir. [4]

Donishmandlik hayot so’qmoqlarida ulug’ saodatni hozirlab , in’om etuvchi vositadir. [4] Xulqning muvozanati a’zolar salomatligini ta’minlaydi .[4]

Mol – dunyoying seni aldmasin ! Chunki asaragan mol – dunyoying boshqaniki bo’ladi . Uni yaxshilikka sarf eta olsanggina seniki bo’ladi.[4]

Bir kishi sen bilan munosabatida xato qilib, so’ng uzrini bayon etsa , uning uzrini kechiktirmay qabul et! [4]

Agar havoda chang va tutun bo’lmaganida edi, odamlar ming yil ham yashagan bo’lardi.[4]

Kishi uchun eng foydaali , dilni yorutuvchi narsa qanoatdir . Eng zararli va nafrat keltiruvchi narsa esa hips va g’azabdir.[4] Badan tarbiya bilan mashg’ul bo’linsa , hech qanday dori – darmonga zarurat qolmaydi, buning uchun muayyan bir tartibga rioya qilmoq lozim.[4] „Bekorchilik va aysh – ishrat nafaqat nodonlikka olib keladi, ayni vaqtda kasallikning tug’ulishiga ham sabab bo’ladi” Abu Ali ibn Sino.[8]



XULOSA.

Abu Ali ibn Sino O'rta Osiyolik buyuk olim. Allomamiz ko'plab ilmlar asoschisi hisoblandi. Ayniqsa, tabobat ilmiga qo'shgan hissalarini beqiyos. Allomamizning yuksak merosini biz yoshlar o'rganishimiz, tadbiq qilishimiz kerak. Mustaqillikdan keyingi yillarda barcha allomalar merosini ilmiy o'rganish yo'lga qo'yildi. Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 25- yanvardagi 36 – sonli qaroriga muvofiq allomaning yubileyi keng nishonlandi. Bu ham allomamizga bir e'tibor hisoblanadi. Ibn Sinoning ham ilmiy me'rosi alohida e'tibor bilan o'rganildi. Allomaning „Tib qonunlari“ asarini biz yoshlar o'rganishimiz, tadbiq qilishimiz kerak. Bu asarni katta -kichik, yosh-u -qari barchamiz o'qib o'rganishimiz kerak.

Bunda barcha kasalliklar tabiiy yo'l bilan davolanishi aytib o'tilgan. Hozirgi kunda ham allomamiz asarlaridan foydalanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. S.M.Matkarimov, Z.M. Raximova, SH.F. Allanazarova Abu Ali ibn Sino xalq tabobati va zamonaviy tibbiyot asoschisi Urganch „Xorazm nashr matboa“ 2020.
2. F. Nurbayev Ibn Sino ta'limoti Toshkent „Tib – kitob“ 2010.
3. <https://corp.uzairways.com/uz/abu-ali-al-husain-ibn-abdulloh-ibnsino-980-1037> sayti.
4. Imom Buxoriy Xalqaro ilmiy tadqiqot markazi. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyalari markazi hammuallifligida „Ibxitim“ 2022
5. <https://arboblar.uz/uz/people/abu-ali-ibnisina> sayti.
6. [https://buxdu.uz/114 – allomalar/ 4516/4516-abu-ali-ibn-sino](https://buxdu.uz/114-allomalar/4516/4516-abu-ali-ibn-sino) sayti.
7. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Abu Rayxon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti Abu Ali ibn Sino „Tib qonunlari“
I – kitob, uchinchi nashr. Toshkent „Sharq“ nashriyot – matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririyo 2020.
8. [https://uzbekistan.travel/uz/o/asrlarga-tatigan-daholik – abu – ali ibn -sino](https://uzbekistan.travel/uz/o/asrlarga-tatigan-daholik-abu-ali-ibn-sino) sayti.